

# **BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

## **QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBI VA TAHLILINING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING MUHIM JIXATLARI**

**Mamatkulov Akram Xalmurodovich**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*Moliyaviy tahlil kafedrasи dotsenti*

*G-mail: [mamatkulovakrom629@gmail.com](mailto:mamatkulovakrom629@gmail.com)*

*ORCID: 0000-0002-0529-5042*

**Annotatsiya:** Maqolada qayta ishlash korxonalarida xarajatlar hisobi va tahlilining uslubiy asoslarini takomillashtirishning muhim jixatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** xarajat, tannarx, daromad, qayta ishlash korxonaları, xarajasatlari hisobi, tahlil, ikkilamchi mahsulot.

Yangi O'zbekiston bugungi kunda mavjud xom-ashyo resurslardan unumli foydalanim, korxonalarda modernizatsiya ishlarini olib borish va yangi texnologiyalar asosida mahsulotlar yaratib, xalqaro bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, yuqori samaradorlik ko'rsatkichlariga erishish maqsadida qayta ishlash korxonalariga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Qayta ishlash korxonalar faoliyatini iqtisodiyotdagi o'rni nimalardan iborat. Bizga ma'lumki, bu korxonalar xom-ashyo resurslarni qayta ishlab yangi turdag'i mahsulotlarni yaratadi. Ular ishlab chiqargan mahsulotlar biz iste'molchilar uchun hamda jaxon bozorida eksport salohiyatimizni oshirish uchun xizmat qiladi. Shuning uchun Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarda qayta ishlash korxonalar uchun mavjud imkoniyatlarni yaratish bilan birga unga bir qancha vazifalarni ham yuklamoqda. «Mamlakatimizdagi mavjud resurs va imkoniyatlarni safarbar etgan holda, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi ichki mahsulot hajmini yanada oshirishni maqsad qilganmiz. Jumladan, «xom-ashyodan – tayyor mahsulotgacha» degan tamoyil asosida drayver sohalarda klaster tizimini rivojlantirish»<sup>1</sup> va «Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash»<sup>2</sup> kabi muhim ustuvor vazifalar belgilab qo'yilgan. Ushbu dolzarb vazifalardan kelib chiqib, qayta ishlash korxonalar faoliyatidagi “xarajatlar hisobi va tahlili”ga e'tibor qaratmoqchimiz. Faoliyatdagi xarajatlar qaysi maqsadlar va vazifalar uchun amalga oshirilishi, bu xarajatlar ortida korxona uchun qanday natijalar kutilayotganini aniqlash muhim. Ya'ni har qanday qayta ishlovchi korxona, qaysi xom-ashyo resurslardan mahsulot ishlab chiqarish uchun o'ziga xos xarajatlarni talab qiladi. Ular quyidagilardan iborat bo'ladi:

1.Ta'minot jarayonidagi xarajatlar;

<sup>1</sup> Yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi «Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz» nutqi. Xalq so'zi.06.11.2021y.

<sup>2</sup> 2022—2026 yillarga mo'ljallangan «Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli Farmoni

## **BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

- 2.Ishlab chiqarish jarayonidagi xarajatlar;
- 3.Sotish jarayonidagi xarajatlar.

Yuqoridagi uchta jarayonlar har birida bir qancha xarajat elementlari mavjud bo'lib, ular korxona faoliyatida o'ziga xos vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Iqtisodiy adabiyotlarda "xarajatlar hisobi va tahlili" bo'yicha asosiy e'tibor mahsulot ishlab chiqarish kesimidagi (jarayonidagi) xarajatlarga qaratiladi. Bunda xarajatlar elementlariga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Moddiy xarajatlar;
2. Mehnatga haq to'lash xarajatlari;
3. Yagona ijtimoiy to'lov;
4. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
5. Boshqa har xil xarajatlar. Ushbu xarajatlar orqali faqat asosiy faoliyatidagi mahsulot tannarxi shakllanadi. Qayta ishlash korxonalarida bunday xarajatlar faoliyat natijasida olingan har bir mahsulotning tannarxini to'liq shakllantirib berolmaydi. Ushbu korxonalarda xom-ashyolarni qayta ishlash natijasida bir turdag'i mahsulotlardan tashqari boshqa mahsulotlar ham paydo bo'ladi. Ularni ikkilamchi mahsulot yoki texnologik jixatdan chiqindi sifatida qarab, e'tibor berishmaydi. Qayta ishlash korxonalarida amalga oshirilgan xarajatlarga e'tibor qaratsak, ularning taqsimoti olingan har bir mahsulot uchun qanday va qancha qiymatga ega bo'lishini aniqlash zarur. Ya'ni olingan har bir mahsulotni tannarxini to'g'ri shakllantirish yoki olinayotgan daromadlarning ulushi har bir mahsulotga qanchadan to'g'ri kelishi, ularning har qaysisi korxona uchun qanchadan foya yoki zarar olib kelishi korxona uchun muhimdir. Asosiy muammoli masalalar ham shunda. Ko'pgina korxonalar ushbu xarajatlarni ko'p qismini asosiy (operatsion) faoliyati bo'lgan mahsulotga taqsimlaydi. Qolgan ikkilamchi mahsulotlari bo'yicha esa taqsimlash tartibi qanday bo'lishi hamda faoliyatga ta'sir etuvchi omillarni aniqlanishi qiziqtiradi. [1]

Bu kabi o'z yechimini kutayotgan mavjud holatlarga munosabat qanday bo'lishi korxona e'tiboridan albatta chetda qolmaydi. Bundan tashqari korxona faoliyatida boshqa xarajatlar ham borki, ular korxona faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Ular quyidagilar:

1."Korxonani ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish" xarajatlari bo'yicha: kredit olish, investitsiyalar kiritish va moliyaviy mablag'larni yig'ish vazifalari amalga oshirilgandan so'ng paydo bo'ladigan foizli xarajatlari;

2.Korxona faoliyatining moliyaviy natijasi bo'lgan "zarar" xarajati. Chunki yuqoridagi ushbu xarajatlar qayta ishlash korxonalarini uchun mavhum bo'lgan ko'rsatkichlarni ifodalaydi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan qayta ishlash korxonalarining muxim jixatlarini inobatga olgan holda, xarajatlar hisobini va tahlilini uslubiy asoslarini takomillashtirish borasida muallif tomonidan quyidagi xulosalar qilinadi:

1. Xarajatlarni hisobga olish va tahlil qilishda xo'jalik faoliyati bilan bog'liq barcha harajatlar va daromadlarning inobatga olinishi muhim masalalardan biridir.

## **BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

2.. Faoliyat bilan bog'liq barcha xarajatlarni olingan mahsulotlarga to'g'ri taqsimlash xarajatlarni hisobga olish va tahlil qilishning zaruriy shartidir.

Ushbu xulosalar natijasida takliflari quyidagicha:

1. Mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, korxonadagi barcha xarajatlarini va daromadlarni bir-biriga bog'liqligini e'tiborga olish;
2. Hisob siyosatini shakllashtirishda qo'shimcha ishchi analitik schyotlarni ishlab chiqish;
3. Xarajatlar va daromadlar texnologik zanjirini ishlab chiqarishni butun tarkibi bilan uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqish zarur. Bu esa sof foyda ko'rsatkichiga ta'sirini o'rganish orqali amalga oshiriladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Mamatqulov A.X. (2024). Qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish hisobi va tahlilini takomillashtirish. Jahon ilmiy tadqiqot jurnali, 26(3), 132–140. <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3256>.
2. Mamatqulov A.X.(2023). Paxtani qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha tannarxni hisoblash usullarini takomillashtirish [https://gospodarkainnowacje.pl/index.php?issuet\\_view\\_32articleview1910](https://gospodarkainnowacje.pl/index.php?issuet_view_32articleview1910)
3. Mamatqulov A.X. (2022). Paxtani qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha xom ashyo va materiallar hisobini takomillashtirish. *Scientific Journal of "International Finance & Accounting*, Issue 6, December 2022
4. Рахимов, М. Ю., & Рузмаматов, А. К. (2024). Янги лойиҳалар бошқарувида иқтисодий дастакларни таомиллаштириш. *World scientific research journal*, 23(2), 362-375.
5. Raximov, M. Y. (2015). Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O 'quv qo'llanma. T.: "Iqtisod-moliya."
6. Klichev, B. (2024, февраль 23). Inson kapitalini rivojlantirishda ishchilar harakati tahlili. Ilm-fan taraqqiyotida mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirish, Farg'ona, O'zbekiston. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10901976>
7. Чориев И.Х. (2023). Молиявий ҳисоботлардаги хатоликларни аниқлашда таҳлилий амаллардан фойдаланишнинг услубий жиҳатлари. *Scientific Journal of "International Finance & Accounting*, Issue 1, February 2023..
8. Қличев, Б. (2021, май 21). Maxsulot (иш, хизматлар) ga баҳо шакллантириш масалалари. Бухгалтерия хисоби ва аудиторлик фаолиятини халқaro стандартлар асосида ташкил этишнинг долзарб масалалари. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10647005>
9. Сагдиллаева, З. А., & Файзиев, У. Ш. (2023). АНАЛИЗ И ОЦЕНКА ФИНАНСОВОГО ПОЛОЖЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ. In *Бухгалтерский учет, анализ и аудит: история, современность и перспективы развития* (pp. 201-207).
10. Қличев, Б. (2021, май 21). Ўзбекистонда ишбилармонлик фаоллиги таҳлилини ташкил этиш. Бухгалтерия хисоби ва аудиторлик фаолиятини халқaro стандартлар асосида ташкил этишнинг долзарб масалалари. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10646960>
11. Рахимов, М. Ю., Мавланов, Н. Н., & Каландарова, Н. Н. (2022). Экономический анализ. Учебник. Т.:«Экономика-Финансы.

## **BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

12. Қличев, Б. (2021, май 5). Ишбилиармонлик фаоллиги индекси таҳлили. *Biznes-tahlilni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari.* <https://doi.org/10.5281/zenodo.10647021>
13. Чориев И.Х. (2023). Молиявий инвестициялар ҳисобини такомиллаштириш. *Scientific Journal of "International Finance & Accounting", Issue 2, April 2023.*
14. Қличев, Б. (2022, сентябрь 16). Операцион фаолият таҳлилида харидор танлови асосида маҳсулотга баҳо шакллантириш масалалари. Инновацион ёндашув асосида молиявий ҳисботнинг халқаро стандартларини жорий этиш. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10647059>
15. Сагдиллаева, З., Чориев, И., Максмудов, А., & Юлдашева, Ю. (2007). Экономический анализ.
16. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2024). Ишчилар қўнимсизлиги таҳлили. *World Scientific Research Journal*, 23(2), 287–294. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3042>
17. Pardayevich, K. B. (2022). ANALYSIS OF PRODUCT PRICING BASED ON PRODUCT PARAMETERS AND CUSTOMER CHOICE. *Journal of new century innovations*, 6(1), 67-79
18. Mamatqulov A.X. (2023). Paxtani qayta ishlash korxonalarida xarajatlarini boshqarish va hisobga olish usullari. *Moliya ilmiy jurnali*, 3-сон.